

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi 229

O'.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi 302

M.G'anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish 311

TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING JAMIYATGA TAHDIDI
THE THREAT OF TERRORISM AND EXTREMISM TO SOCIETY
УГРОЗА ТЕРРОРИЗМА И ЭКСТРЕМИЗМА ОБЩЕСТВУ

Xasanov Boburjon Hakimovich¹

¹Xasanov Boburjon Hakimovich

– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada, mamlakatimizda olib borilayotgan diniy bag'rikenglik sohasidagi islohotlar, ushbu yo'nalishda aholiga berilayotgan imkoniyatlar, ko'p millatli xalqimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar yoritilib, ushbu imkoniyatlardan o'zlarining g'arazli niyatlarda foydalanib kelayotgan xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarning hozirgi kundagi harakatlari, buning natijasida kelib chiquvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va kriminogen oqibatlar o'rganib chiqilgan.

Abstract

In this article, the reforms in the field of religious tolerance carried out in our country, the opportunities given to the population in this context, the friendly relations between our multi-ethnic people, the current actions of international terrorist and extremist organizations that use these opportunities for their malicious intentions, and the resulting social, economic, spiritual and criminogenic consequences are studied.

Аннотация

В данной статье реформы в сфере религиозной толерантности, проводимые в нашей стране, возможности, предоставляемые населению в этом контексте, дружеские отношения между нашим многонациональным народом, современные действия международных террористических и экстремистских организаций, использующих эти изучаются возможности их злонамеренных намерений и вытекающие из них социальные, экономические, духовные и криминогенные последствия.

Kalit so'zlar: *Terrorizm, ekstremizm, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik, islom dini, falsafa, shaxs kamoloti.*

Ключевые слова: *терроризм, экстремизм, общество, общественно-политическая ситуация, безопасность, исламская религия, философия, развитие личности.*

Key words: *Terrorism, extremism, society, socio-political situation, security, Islamic religion, philosophy, personality development.*

KIRISH

O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", "Dunyoviylik – dahriylik emas" degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda o'zining huquqiy ifodasini topgan.

Bugungi kunda xalqaro terrorchilik va ekstremistik tashkilotlari tomonidan yoshlarimizning ongiga aqidaparast va buzg'unchi g'oyalarni singdirish orqali, buyuk boyligimiz bo'lgan tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlikni izdan chiqarish urinishlar tobora ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'imizdek saqlash, jamiyatimizdagi millatlar va dinlararo hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1].

O'zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lgani, Vatan taraqqiyoti yo'lida yelkadosh bo'lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko'p qayd etilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 38 mln dan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo'lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoii jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Buddha ibodatxonasidir.

Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglikning amaliy ifodasidir.

Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi [2].

Ma'lumki, bugun musulmon olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlar chuqur siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli to'qnashuvlarni boshidan kechirmoqda. Mazkur hududlarda go'yoki haqiqiy "islomiy davlat" qurish shiori ostida ochiqdan-ochiq zo'rvonlik, insoniylikka zid vahshiyliklarga asoslangan amallarga qo'l urayotgan turli guruh va jamoalar urchib ketdi.

Ammo unutmaylikki, davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda. So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Ayniqsa, internet tarmog'ida o'zini "Islom davlati" (ISHID), "Jabhat al-Nusra" deb atab olgan terroristik tashkilotlar go'yoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihod"da ishtirok etib da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga borib qo'shilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz [3].

Afsuski, yoshlarning muayyan qismi ISHIDni haqiqatda ham islom dinini butun dunyoga tarqatish, islomiy davlat barpo etgan holda dunyoda adolat o'rnatishni maqsad qilgan tashkilot deb hisoblaydi. Bunday fikrlovchilar Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda ham bor ekani hech kimga sir emas. Bunday yoshlar yuqorida qayd etilgan hududlarda insonlarga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarni go'yoki xalifalik qurish uchun joiz amal hisoblab qattiq adashmoqdalar.

Aslida, mutaassib oqim a'zolarining maqsadlari — "jihod", "hijrat", "shahidlik", "kofir bo'lish" kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'oniston yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, manqurt-jangariga aylantirishdan iborat [4].

Aslida "hijrat" lug'atda "ko'chish, biron narsadan ajrash, tark etish" ma'nolarini anglatadi. Istilohda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) boshchiliklaridagi bir guruh musulmonlar jamoasining Quraysh tazyiqidan qutilish maqsadida Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlariga hijrat deyiladi.

Aqidaparastlar yoshlarni avrab, islom diyori bo'lgan, azon aytiladigan, juma va hayit namozlari o'qiladigan, umuman, islomning besh arkonlari emin-erkin ado etilib, musulmonchilik amalda bo'lgan va fuqarolar tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatani tark etishga targ'ib qilmoqda.

Vaholanki, o'z yurtini tashlab, o'zga yurtlarda sarson-sargardon yurish, manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi qurol ko'tarish ayni islom ta'limotiga zid ishdir. Insonlarni tinch va osoyishta diyordan din nomidan qotilliklar oshkora qilinayotgan fitna makonlariga chorlashdek qabih ish hech qachon "hijrat" bo'la olmaydi.

Payg'ambarimiz (s.a.v) hadisi sharifda: "Haqiqiy muhojir Alloh va Rasuli qaytargan narsadan hijrat qilgan (qaytgan) musulmondur" deb marhamat qilganlar. Islom dini Vatanga xiyonat, qotillik, buzg'unchilik, o'zini o'zi o'ldirish, o'zgalarga zum qilish, ota-onaga oq bo'lish kabilardan qaytaradi. "Jihod" so'zi lug'atda kishining o'z maqsadiga erishish yo'lida bor imkoniyatlarini ishga solib, qattiq harakat qilishi ma'nosini anglatadi [5].

Darsini o'zlashtirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solib harakat qilayotgan o'smir mujtahid talaba deb ataladi. Binobarin, uni ilmiy jihod qilmoqda desa bo'ladi.

Istilohda dini, Vatani, oilasi, obro'si va moli himoyasini shariat ruxsat bergan yo'llar bilan amalga oshirishni anglatadi. Kishining o'z vatanini bosqinchilardan, isyonkorlardan himoya qilishi ham ayni jihoddir. Hadisda insonning o'z nafs yomonliklariga qarshi turishi, yaxshiliklarga intilishi katta jihod ekanligi ta'kidlanadi.

Terrorizm va ekstremizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solib kelmoqda. Jumladan, diniy ekstremistik oqim tarkibiga kirib qolgan shaxs:

- oilasi, qarindosh-urug'lari va yaqin insonlaridan mahrum bo'ladi;
- jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini yo'qotadi, chuqur ilm olish, yaxshi kasb egasi bo'lish va hayotda munosib o'rin egallash imkoniyatlaridan ayriladi;
- yon-atrofidagi jarayonlarga shaxsiy munosabatga ega bo'la olmay, voqelikka faqat DEO nuqtayi-nazaridan qarashga majbur bo'ladi;
- umri qamoqda yoki o'zga yurtlarda xor-u zor va sargardonlikda o'tadi, ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari oldidagi insoniy majburiyatlarini bajara olmaydi.

O'z navbatida, diniy ekstremistik g'oya va yot diniy qarashlarning jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit va tadrijiy rivojlanishga zararli ta'siri quyidagilarda aks etadi:

- DEO a'zosi qonuniy jazoga tortilishi yoki "hijrat" da'vosida xorijiy yurtlarga chiqib ketishi oqibatida jamiyatning birlamchi bo'g'ini bo'lgan oilalarda parokandalik yuzaga keladi, farzandlar tarbiyasiz, oilalar esa boquvchisiz qoladi;
- jamiyatda an'anaviy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish tizimi va tadrijiy rivojlanish jarayoni buziladi, mazkur jamiyatda asrlar osha muhim o'rin tutgan milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlar ahamiyatini yo'qotishi oqibatida ma'naviyat pasayadi;
- ekstremistik va terroristik harakatlar sodir etilish orqali jamiyatda "yovuzlik chegarasi" pasayib, odamlar qotillik, qiynoq, bosqinchilik, garovga olish, qulchilik kabi jinoyatlarga ko'nikib qoladi. Ayni chog'da, ushbu yovuzliklar jamiyatning muayyan qismida vahima uyg'otadi, qochoqlar oqimi paydo bo'ladi;
- terrorizm va ekstremizm, ular oqibatida kelib chiqadigan ijtimoiy beqarorlik jamiyatda kriminal jinoyatlarning avj olishiga xizmat qiladi;
- davlat tomonidan xavfsizlik choralari ko'rish uchun byudjet mablag'larini sarflashi, shuningdek, terroristik harakat oqibatida ko'rilayotgan moddiy zarar jamiyatga iqtisodiy jihatdan katta zarar yetkazadi. Oqibatda ishsizlik oshadi, ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan loyihalar bajarilmay qoladi, aholining turmush darajasi pasayadi;
- mamlakatning taqdiri iqtisodiy donor va qurol-aslaha sotuvchi davlatlarga bog'liq bo'lib qoladi. Xorijga ish axtarib ketgan ayrim yoshlarimiz DEO oqim a'zolarining ta'siriga tushib, yurtga qaytgandan so'ng yon-atrofdagilardan "jamoat" tuzishga, ularni "hijrat"ga olib chiqishga qaratilgan harakatlar sodir etayotgani kuzatilmoqda.

Albatta, ish joyi tanlash huquqi har kim uchun kafolatlangan, biroq hozirda ayrim xorijga ketganlarning odam savdosi qurboniga aylanib qolayotgani, xor-u zor bo'lib, biron narsa orttirib qaytish o'rniga boridan ham ayrilib kelayotgani ham bor gap. Eng yomoni pul topish istagida xorijga ketganlarning ba'zilar chet eldagi yasama "din da'vatchilari"ning qarmog'iga ilinib, soxta "hijrat" va "jihod" da'vatlariga uchayotgani, uch-to'rt so'm uchun Suriya, Afg'oniston kabi nizo va urush o'choqlarida qo'llarini qonga belab, o'z ona-yurtiga qurol o'qtalish darajasidagi manqurtga aylanib qolayotgani bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini taqozo qilmoqda. U yerlarda diydasi qotgan jallodlarga aylangan bu johillar yurtiga qurol o'qtalib, o'z xalqi, ota-onasi va dindoshlariga tahdid bilan dag'dag'a qilishdek tubanlikka yuz tutyaptilar.

Ekstremistik oqimlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Ba'zi yoshlarimiz "Internet" orqali o'zini "Islom davlati" deb atayotgan terrorchi tashkilot aqidaparast guruhlar ta'siriga tushib qolishi, "Obid qori", "Abduvali qori", "Rafiq qori" kabi mutaassib shaxslarning ma'ruzalarini diskda yoki qo'l telefoni xotirasida saqlab, tinglab yurish holatlari mavjud [6].

Ayniqsa, so'nggi vaqtda hatto o'smir yoshdagi bolalar Suriya, Iroq kabi mamlakatlardagi jangarilarning faoliyatini targ'ib qiluvchi materiallarni telefonda qo'lma-qo'l qilayotganlari kuzatilmoqda.

Vaziyatning bunday tahlikali o'zgarib borishi respublikamizda barcha jonkuyar fuqarolaridan hushyorlik va ogohlikni keskin oshirishlarini taqozo etadi. Tinchlikni saqlash hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Afsuski, hayotimizda sodir bo'layotgan noqonuniy xatti-harakatlarni ko'rib ko'rmasslikka oladigan, tinchlikni saqlash faqat davlatning ishi deb o'ylaydiganlar, farzandlarining tarbiyasi bilan qiziqmaydigan ota-onalar ham borligini qayd etish lozim.

NATIJA VA MUHOKAMA

Vatan oiladan boshlanadi. Oilada tinchlik bo'lsa, mahalla, qishloq, shahar, viloyat va nihoyat mamlakatda osoyishtalik bo'ladi, yurt ravnaq topadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasb-hunarlari bilan axloqiy fazilatlarini ham o'stirib borishimiz kerak. Yosh avlodning turli yot oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish to'g'risida g'amxo'rlik faqat hukumatimiz yoki ta'lim muassasalarining vazifasi emas, balki har bir ota-onaning ham muhim burchlaridan biridir.

Yana ta'kidlash joizki, tinchlikni ulug' ne'mat deb e'lon qilgan dinimizda bu yo'lda nafaqat amal bilan, balki so'z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan.

Shu nuqtayi-nazardan, fuqarolarimiz yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni avaylab-asrash yo'lida davlatimizning mutasaddi idoralari tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni e'tiqoddan qo'llab-quvvatlashlari va qo'lidan kelgancha ularga yordam berishlari lozim. Tahdidlarni oldini olishga qaratilgan aynan mana shunday chora-tadbirlar hisobiga yurtimiz tinch, dindorlarimiz xotirjamlikda ibodatlarini ko'ngildagidek ado etmoqdalar.

XULOSA

Yurtimizga g'alamislik qilishga harakat qiluvchi, go'yoki dindorlarga tazyiq qilinmoqda degan tuhmat tarqatayotgan kimsalarning tegirmoniga suv qo'yib qo'ymasligimiz ham lozim. Zero, Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) marhamat qilganlaridek: "Haqiqiy musulmon bu – musulmonlar uning tili va qo'lidan omonda bo'lishliklaridir" deb marhamat qilganlar.

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning, davlat yoki jamoat tashkilotida ishlashi, tadbirkor yoki boshqa kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, eng asosiy vazifalaridan bo'lib qolmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Go'zal va betakror o'lka" Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq. Uchqo'rg'on tumani. 02.11.2016 yil. 83-b.
2. G'affarova G. Axborotlashgan jamiyatda terrorchilik faoliyati haqida/«Global terrorizm va uning geosiy o'lchami» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 2-kitob, Navoiy 2022 yil 45-47 betlar.
3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari / Mas'ul muharrir A.Ochildiev. – T.: Toshkent islom universiteti, 2008. – 246 b.
4. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. – T.: Movarounnahr, 2000. – 163 b.
5. Husnidinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. – T.: Toshkent islom universiteti, 2006. – 162 b.
6. Jo'raev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 188 b.